

**O'ZBEKISTON HUDUDIDA O'SUVCHIDORIVOR XUSUSIYATGA EGABO'LGAN AYRIMO'SI
MLIKLARHA QIDAMA'LUMOT**

Xusanova Dilorom Nurmatjon qizi

*ADPI Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi fakulteti
biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Komilova Arofatoy Kozimjon qizi

*ADPI Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi fakulteti
biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston florasida o'suvchi dorivorlik xususiyatlariga ega bo'lgan, tarkibida saponinlar, vitaminlar, tanninlar va efir moylari bo'lgan foydali o'simliklarning qaysi oilaga mansubligi, hayotiy shakli, kimyoviy tarkibi va qanday kasalliklarga davo bo'lishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston florasida, oila, hayotiy shakl, kimyoviy tarkib, saponin, efir moyi, tannin, vitamin.*

**СВЕДЕНИЯ О НЕКОТОРЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЯХ, ПРОИЗРАСТАЮЩИХ В
УЗБЕКИСТАНЕ**

Аннотация: *В этой статье мы поговорим о семействе, жизненной форме, химическом составе и лечении полезных растений с лечебными свойствами, содержащих сапонины, витамины, дубильные вещества и эфирные масла, произрастающих во флоре Узбекистана.*

Ключевые слова: *флора Узбекистана, семья, форма жизни, химический состав, сапонин, эфирное масло, танин, витамин.*

**INFORMATION ABOUT SOME PLANTS WITH MEDICINAL PROPERTIES GROWING IN
THE TERRITORY OF UZBEKISTAN**

Annatation : *In this article, we will talk about the family, life form, chemical composition, and treatment of useful plants with medicinal properties, containing saponins, vitamins, tannins, and essential oils that grow in the flora of Uzbekistan data is provided.*

Keywords: *flora of Uzbekistan, family, life form, chemical composition, saponin, essential oil, tannin, vitamin.*

Turkiston arslonquyruqi (*Leonurus turkestanicus* L.) yalpizdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. Bu o'simlikning yer ustki qismi tarkibida alkaloidlar va saponinlar oshlovchi moddalar bor. Bu o'simlikning damlamasi yurak, gipertoniya kasalliklari, asabiylikda (tinchlantiruvchi) dori vositasi sifatida qo'llaniladi.

Oddiy arpabodiyon (*Anisum vulgare*) ziradoshlar (*Apiaceae*) oilasiga mansub bir yillik o't o'simlik. Arpabodiyonning mevasi tarkibida 3,2%, ba'zan 6% gacha efir moyi va 28% gacha boshqa moylar bor. Efir moyi tarkibida 90% gacha anetol bo'ladi. Mevasi va efir moyidan tayyorlangan preparatlar balg'am ko'chiruvchi dori sifatida qo'llaniladi.

Bo'tako'z (*Centaurea depressa*) — murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub bir yillik begona o't. Adir va tog' etaklaridagi toshloq yerlarda o'sadi. Bu o'simlikdan tabobatda istima tushiruvchi, buyrak kasalliklarida, virus va infeksiyalarni o'ldiruvchi dori vositasi sifatida foydalaniladi.



Oddi bo'ymadoron (*Achillea millefolium*) murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub yovvoyi holda o'suvchi ko'p yillik o't o'simlik. Bu o'simlik tarkibida vitamin K va C, karotin, efir moyi (0,1-0,2%), alkaloid axillein, flavonoidlar (apigenin va lyuteolin), oshlovchi va boshqa moddalar bor. Bu o'simlikdan qon ketishini to'xtatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Beshbang ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. Bu o'simlikning tarkibida qandlar, organik kislotalar, vitamin C, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Abu Ali ibn Sino beshbang ildiz poyasining qaynatmasini tish og'riganda, quymich nervi shomollaganda, o'pka va meda kasalliklarida ishlatgan. Qurutilmagan ildizpoya shirasi bilan jigar kasalligini davolagan. O'simlik bargidan esa isitmalayotga bemorlarni davolashda foydalangan. Xalq tabobatida ildizpoya yoki o'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma qon to'xtatuvchi (ichak va medadan, tuqqandan songi qon ketishlarda) dori sifatida hamda og'iz og'riganda og'izni chayishda, meda - ichak kasalliklarida (ich ketganda) ishlatiladi.



Bozulbang (*Lagochilus inebrians*) labguldoshlar (*Lamiaceae*) oilasiga mansub chala buta o'simlik. Tog' oldi adirlarining shag'alli qiyaliklarida o'sadi. O'simlikning gullari va barglarida to'rt atomli spirt bo'lgan lagoxilin mavjud. Barglarda, shuningdek, efir moyi



(0,03%), taninlar (11-14%), shakar, organik kislotalar, askorbin kislotasi, karotin, K vitamini, mikroelementlari, kalsiy tuzlari, ildizlarda – taninlar va shakar mavjud. Bozulbang

preparatlari me'da shirasining ovqat hazm qilish qobiliyatini, umumiy va erkin kislotaliligini oshiradi. Yana bu o'simlik preparatlari hissiyotni pasaytiruvchi adaptogen xususiyatga ega.

Baxmalgul (*Alcea rosea*) gulxayridoshlar (*Malvaceae*) oilasiga mansub ikki yoki ko'p yillik o't o'simlik. Bu o'simlikning ildizidan tayyorlangan tabletkadan balg'am ko'chiruvchi, ichni yumshatuvchi va shamollashga qarshi dori vositasi sifatida qo'llaniladi.

Dalachoy (*Hypericum perforatum* L.) dalachoydoshlar (*Hypericaceae*) oilasiga mansub ko'p yillik ildizpoyali o'simlik. O'simlik tarkibida giperitsin, giperozid, rutin, kversitrin va kversetin flavonoidlari, nikotin kislotasi, seril spirti, taninlar, ozroq miqdordagi xolin, karotin (55 mg% gacha), C va PP vitaminlari, alkaloidlar va fitonsidlar bor. Dalachoyning o'ti biriktiruvchi, qon to'xtatuvchi, yallig'lanishga qarshi, og'riq qoldiruvchi, antiseptik, yarani davolash, siydik haydovchi va o't haydovchi ta'sirga ega.



Gazanda o't (*Urtica dioica* L.) gazandadoshlar (*Urticaceae*) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik bo'lib, soyali nam joylarda, daraxtlar kesilgan, yonib ketgan



maydonlarda, jarliklar va qirg'oqdagi butazorlarda o'sadi. Gazanda o't barglarida 269 mg% gacha C vitamini, karotin va boshqa karotinoidlar (50 mg% gacha), B va K guruh vitaminlari, chumoli, pantoten va boshqa organik kislotalar mavjud. Barglarda 5% gacha xlorofill, 2% dan ortiq taninlar, kamed, protoporfirin, koproporfirin, sitosterin, urtitsin glikozidi, temir, fitonsidlar, kversetin, kofe, kumarik, ferula kislotalari, atsetilxolin, gistamin va 5-gidroksitriptamin mavjud. Gazanda o't o'simligidan tayyorlangan preparatlardan qonni to'xtatish va qonni ivishini oshirish maqsadida foydalanish mumkin.



Na'matak (*Rosa fedtschenkoana*) ra'noguldoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub buta o'simligi hisoblanadi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra bu o'simlik C, P va B vitaminlariga boy. Tibbiyotda bu o'simlikdan qonli ich ketishi, qaltiroqli isitma va ichak infeksiyalarida, milk kasalliklarida og'iz chayish uchun

qo'llaniladi.

Isiriq (*Peganum harmala* L.) tuyatovondoshlar (*Nitrariaceae*) oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. Isiriqning urug'larida alkaloidlar 3,5-6% ni miqdorini tashkil qiladi, ularning 60% – garmalin, 30% ga yaqin garmin va oz miqdordagi garmalol, peganin va deoksivazitsinon bo'ladi. O'simlik o'tining tarkibida 1,5-3% alkaloid mavjud bo'lib, ulardan 60% peganin (vazitsin) va vazitsinon mavjud. Tibbiyotda siriq urug'lari tarkibidagi garmindan epidemik ensefalit, titrovchi falaj va Parkinson kasalliklarining asoratlarini



davolashda foydalaniladi. Xalq tabobatida esa isiriq o'simligining damlama va qaynatmalari markaziy asab tizimini qo'zg'atuvchi, tinchlantiruvchi, og'riq qoldiruvchi, yallig'lanishga qarshi, stimullovchi, antigelmintik, antiseptik, terlatuvchi va siydik haydovchi sifatida ishlatiladi.



Marmarak (*Salvia spinosa* L.) labguldoshlar (*Lamiaceae*) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Marmarak xalq tabobatida yurak tez urganda, darmonsizlikda, bezgak, buyrak kasalliklarini davolashda hamda ovqat hazm bo'lishini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Ekstraktidan tayyorlangan surtmasi va ekstraktining konsentrati – salmus teri kasalliklarini (masalan, psoriaz)ni davolashda

yaxshi natijalar beradi.

Omonqora (*Ungernia victoris*) chuchmomadoshlar (*Amaryllidaceae*) oilasiga kiruvchi ko'p yillik piyozboshli o'simlik. Bu o'simlik Hisor tog' tizmasining tog' yon bag'irlarida, suv havzalarida, shag'alli joylarda va jarliklarda dengiz sathidan 800 dan 2700 m balandlikda o'sadi. Omonqoraning barglari va piyozlaridan asosiy alkaloid galantamindan tashqari boshqa alkaloidlar ham olinadi:



likorin, gordenin, tatsettin, pankratin. Tibbiyotda galantamin poliomielit, polinevrit, radikulit, shuningdek, sezuvchi va harakatlanuvchi nervlarning travmatik shikastlanishida asorat ta'sirini yo'qotuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Galantamin ichak va siydik pufagi atoniyasini davolashda hamda oshqozon va ichak kasalliklarini funksional rentgen tashhisida ishlatiladi.



Qushqo'nmas (*Silybum marianum*)

murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga kiruvchi bir yoki ikki yillik o'simlik. Qushqo'nmas o'simligi mevasining tarkibida B, A, D, E, F, K guruh vitaminlari bor. Qushqo'nmas o'simligidan tayyorlangan preparatlar jigar

zararsizlantirish funksiyasini kuchaytiradi, jigar to'qimalarining tiklanishiga yordam beradi, safro sekreti yasini oshiradi, yog'larning hazm bo'lishini yaxshilaydi, siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, jarohatni bitiruvchi, yaraga qarshi, kapillyarlarni mustahkamlovchi va antioksidant xususiyatlarga ega.



Oqqaldirmoq (*Tussilago farfara*) murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. Oqqaldirmoq gul savatlarida faradiol, arnidiol, taraksantin, sigmasterin, sitosterin, n-heptakozan va taninlar topilgan. Barglarda achchiq glikozidlar (2,63% gacha), sitosterin, gall, olma va vino kislotalari, saponinlar, karotinoidlar (5,18%),

askorbin kislota (5%), inulin va dekstrin mavjud. Oqqaldirmoq barglari balg'am ko'chiruvchi va yumshatuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Damlamalari bronxit, laringit va bronxoektaz kasalliklarida qo'llaniladi.



Qariqiz (*Arctium tomentosum*)

murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub ikki yillik o't o'simlik. Ildizida inulin polisaxaridi (45% gacha), oqsillar (12% dan yuqori), efir moyi (0,17% gacha), yog'ga o'xshash moddalar (0,82%), palmitin, stearin kislotalari va $C_{26}H_{54}$ uglevodorodi, shuningdek, sitosterin va stigmasterin mavjud. Bu o'simlik mikroblarga qarshi faollikka ega, bezgakka qarshi (isitma tushiruvchi) ta'sirga ega va shamollashda qo'llaniladi, oshqozon yarasi, jigar kasalliklarida, bavoil, siydik tosh kasalliklarida, bod kasalligida, ko'karishlar, yaralar, bosh og'rig'ida (peshonada kompress shaklida) mahalliy vosita sifatida ishlatiladi.

Zira (*Elwendia persica*) ziradoshlar (*Apiaceae*) oilasiga kiruvchi ko'p yillik o'simlik. Tarkibida 2,753,0% efir moyi bor. Xalq tabobatida me'da kasalliklarini davolashda, siydik haydovchi dori sifatida ishlatiladi.



Qo'ytikan (*Xanthium strumarium* L)

murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub bir yillik o't o'simlik. Barglarning tarkibida nisbatan katta miqdordagi yod, alkaloid va askorbin kislota mavjud (taxminan 32 mg%). Urug'larda yog'li moy, smola, ksantostumarin glikozidi va yod mavjud. O'simlik xalq tabobatida qalqonsimon bez kasalliklarini davolashda



ishlatiladi. Bu o'simlikdan tayyorlangan preparatlardan esa istima tushiruvch va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida foydalaniladi.

№	O'simlikning nomi	O'zbekiston hududida tarqalgan joylar
1	Turkiston arslonquyrug'i (<i>Leonurus turkestanicus</i>)	Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarining o'rta tog' mintaqalarida toshli va mayin 132 zarrali qiyaliklarda o'sadi.
2	Bo'tako'z (<i>Centaurea depressa</i>)	O'zbekistonning barcha hududida tarqalgan.
3	Oddiy arpabodiyon (<i>Anisum vulgare</i>)	O'zbekistonning barcha hududida uchraydi.
4	Oddiy bo'ymadoron (<i>Achillea millefolium</i>)	O'zbekistonning barcha hududlarida uchraydi.
5	Bozulbang (<i>Lagochilus inebrians</i>)	O'zbekistonning Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlarining tog' oldi adirlarining shag'alli qiyaliklarida o'sadi.
6	Baxmalgul (<i>Alcea rosea</i>)	O'zbekistonning barcha hududida uchraydi.
7	Dalachoy (<i>Hypericum perforatum</i> L.)	Farg'ona, Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlaridagi tog' oldi mintaqasidan o'rta tog' hududigacha tarqalgan.
8	Gazanda o't (<i>Urtica dioica</i> L.)	O'zbekiston bo'ylab keng tarqalgan.
9	Na'matak (<i>Rosa fedtschenkoana</i>)	Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tog' qiyaliklarining o'rta va yuqori mintaqalarida uchraydi.
10	Isiriq (<i>Peganum harmala</i> L.)	O'zbekistonning barcha hududida o'sadi.
11	Marmarak (<i>Salvia spinosa</i> L.)	O'zbekistonning tog'li mintaqalarida o'sadi.
12	Omonqora (<i>Ungernia victoris</i>)	Hisor tog', tizmasining tog' yon bag'irlarida, suv havzalarida, shag'alli joylarda va jarliklarda o'sadi.
13	Qushqo'nmas (<i>Silybum marianum</i>)	Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.
14	Oqqaldirmoq (<i>Tussilago farfara</i>)	O'zbekistonning barcha hududida tarqalgan.
15	Qariqiz (<i>Arctium tomentosum</i>)	Toshkent va Farg'ona viloyatlarida uchraydi.
16	Zira (<i>Ehwendia persica</i>)	Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo adirlarida, tog' yon bag'irlarida ko'p o'sadi.

17	Qo'ytikan (<i>Xanthium strumarium</i> L)	O'zbekistonning barcha hududida begona o't sifatida o'sadi.
----	---	---

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib jadval tuzdik. Bu jadvalda dorivorlik xususiyati bo'lgan 18 ta o'simlik tahlil qilingan.

Hayotiy shakli	Bir yillik	4
	Ikki yillik	3
	Ko'p yillik	11
	Chala buta	1
	Buta	1
Qaysi oilaga mansubligi	Yalpizdoshlar	1
	Ziradoshlar	2
	Murakkabguldoshlar	6
	Ra'noguldoshlar	2
	Labguldoshlar	2
	Gulxayridoshlar	1
	Dalachoydoshlar	1
	Gazandadoshlar	1
	Tuyatovondoshlar	1
	Chuchmomadoshlar	1
Tarkibidagi moddalar	Vitamin	7
	Saponin	3
	Tannin	4
	Efir moyi	5

Bu jadvalga ko'ra xulosa qiladigan bo'lsak eng ko'p uchraydigan hayotiy shaklga ega bo'lgan o'simliklar bular ko'p yillik o'simliklar hisoblanadi. Jadvalda 18 ta o'simlikni tahlil qilgan bo'lsak, shulardan 11 tasi ko'p yillik o'simliklardir. Bular : Turkiston arslonqulog'i, Oddiy bo'ymadoron, Beshbarg, Baxmalgul, Dalachoy, Gazanda o'ti, Isiriq, Marmarak, Omonqora, Oqqaldirmoq va zira o'simliklaridir. Tahlil qilgan 18 ta o'simlikning 6 tasi murakkabguldoshlar oilasiga mansub. Tarkibida vitaminlar bo'lgan o'simliklar: Oddiy bo'ymadoron, Beshbarg, Bozulbang, Dalachoy, Gazanda o't, Na'matak va Qushqo'nmas. Tarkibida eng ko'p vitamin bo'lgan o'simlik-Qushqo'nmas o'simligidir. Uning tarkibida 6 xil vitamin bor. Tarkibida saponin ya'ni oshlovchi moddasi bo'lgan o'simliklar: Turkiston arslonqulog'i, Beshbarg va Oqqaldirmoq. Saponin

moddasidan xalq xo'jaligida juda ko'p foydalaniladi. Tarkibida tannin moddasi bo'lgan o'simliklar: Bozulbang, Dalachoy, Gazanda o't va Oqqaldirmoq. Tannin bu o'simliklarda ko'plab uchraydigan fenolli birikma. Tannin moddasi — amorf ochsariq kukun. Suvda, glitserinda, sirka efirida eriydi. Tarkibida efir moyi bo'lgan o'simliklar: Oddiy arpabodiyon, Oddiy bo'ymadoron, Bozulbang, Qariqiz va zira. Efir moylaridan sanoatda keng qo'llanadi. Ulardan atirupa, sovun ishlab chiqarishda, tish pastalari, oziq-ovqat essensiyalari tayyorlashda, tamakini xushbo'y qilishda, tibbiyotda (qalampir va evkalipt moylaridan) foydalaniladi. Efir moylari kimyo sanoatida, farmatsevtikada ham qo'llanadi. Pinendan kamfora sintez qilinadi, daraxt moyi skipidar lok va bo'yoq ishlab chiqarishda erituvchi sifatida ishlatiladi.

Tahlil qilingan 18 ta o'simlikning barchasi asosan adir va tog' mintaqalarida

o'sadi. Bu o'simliklarning ko'pchiligi yovvoyi holda o'sadi. Marmarak (*Salvia spinosa* L.) o'simligi O'zbekistonning Qizil kitobiga kiritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. E.T.Berdiyev, E.T.Axmedov "Tabiiy dorivor o'simliklar". Toshkent-2018.
2. O'.Axmedov, A.Ergashev, A.Abzalov "Dorivor o'simliklar va ularni yetishtirish texnologiyasi". Toshkent-2008.
3. Abu Ali ibn Sino "Tib qoqunlari" kitobi 1-jildi. Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti, 1993.
4. Xolmatov H.X., Habibov Z. H., Farmakognoziya [Darslik], T., 1967;
5. Nabiyev M., "Shifobaxsh giyoxlar". Toshkent 1980;
6. Hojimatov Q., Olloyorov M. , "O'zbekistonning shifobaxsh usimliklari va ularni muhofaza qilish". Toshkent 1988;
7. Xoliqov K., "O'zbekiston janubidagi dorivor o'simliklar". Toshkent 1992;
8. Hojimatov Q.H., Yo'ldoshev K.Y., Shog'ulomov U.Sh., Hojimatov O.Q., "Shifobaxsh giyoxlar dardlarga malham (Fitoterapiya)". Toshkent 1995;
9. O.K. Xojimatov, X.Q. Haydarov, D.T. Xamrayeva, D.A. Imomova, A.N. Xunjanov "O'zbekiston dorivor o'simliklar atlas" o'quv qo'llanma. Samarqand 2021.
10. Burigin V.A., Jonguzarov F.X. Botanika. –Toshkent:O'qituvchi nashriyoti,1977.
11. Акопов И.Э. Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применение. – Ташкент: Медицина, 1990.
12. Алимбаева П.К., Гончарова А.В. Дикорастущие лекарственные растения Киргизии. – Фрунзе: Илим, 1971.
13. Атлас ареалов и ресурсов лекарственных растений. – М.: ГУГК, 1983.
14. Биологические особенности и распространение перспективных лекарственных растений //Под редакцией Т.А.Адылова. – Ташкент: Фан, 1981.
15. Биологически активные вещества растительного происхождения. Б.Н.Головкин, Р.Н.Руденская, И.А.Трофимова, А.И.Шретер – в 3 томах. М.: Изд-во Наука, 2001.
- Haydarov, M., & Sayramov, F. (2022). ЛАБГУЛДОШЛАР ОИЛА ВАКИЛЛАРИНИНГ ТИББИЁТДА ҚЎЛАНИЛИШИ ВА КИМЁВИЙ ТАРКИБИ. *Science and innovation*, 1(D8), 262-270.
- Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). BIOECOLOGICAL PROPERTIES OF MEDICINAL SPECIES OF THE MINT FAMILY (LAMIACEAE). *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 183-190.
- Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). BIOECOLOGICAL PROPERTIES OF MEDICINAL SPECIES OF THE MINT FAMILY (LAMIACEAE). *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 183-190.

Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). LAMIACEAE OILASINING EFIR MOYIGA BOY BO'LGAN BAZI TURLARINING MORFOLOGIYASI. Scientific Impulse, 1(2), 692-695.

Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). LABGULDOSHLAR OILASI VAKILLARINING HAYOTIY SHAKLLARI, MORFOLOGIYASI VA TARQALISHI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 472-479.

Baratjon o'g'li S. F. et al. SPECIES OF THE LAMIACEAE FAMILY WITH SPICE PROPERTIES //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2022. – T. 10. – №. 11. – С. 85-89.

Baratjon o'g'li, Sayramov Fayzullo. "SPECIES OF THE LAMIACEAE FAMILY WITH SPICE PROPERTIES." Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities 10.11 (2022): 85-89.

Baratjon o'g'li, S. F. (2022). SPECIES OF THE LAMIACEAE FAMILY WITH SPICE PROPERTIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 85-89.

Xaydarov M. et al. MEDICINAL USE AND CHEMICAL COMPOSITION OF MEMBERS OF THE LABGULODASH FAMILY //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 8. – С. 262-270.

Xaydarov, M., and F. Sayramov. "MEDICINAL USE AND CHEMICAL COMPOSITION OF MEMBERS OF THE LABGULODASH FAMILY." Science and Innovation 1.8 (2022): 262-270.

Xaydarov, M., & Sayramov, F. (2022). MEDICINAL USE AND CHEMICAL COMPOSITION OF MEMBERS OF THE LABGULODASH FAMILY. Science and Innovation, 1(8), 262-270.

Yusupova Z. A., Baratjon ogli S. F., Laziz ogli A. M. ЖИЗНЕННЫЕ ФОРМЫ, МОРФОЛОГИЯ И РАСПРОСТРАНЕНИЕ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СЕМЕЙСТВА ГУБОУЦВЕТНЫХ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 452-458.

Yusupova, Z. A., Sayramov Fayzullo Baratjon ogli, and Abduvaliyev Muhammadqodir Laziz ogli. "ЖИЗНЕННЫЕ ФОРМЫ, МОРФОЛОГИЯ И РАСПРОСТРАНЕНИЕ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СЕМЕЙСТВА ГУБОУЦВЕТНЫХ." Scientific Impulse 1.4 (2022): 452-458.

Yusupova, Z. A., Baratjon ogli, S. F., & Laziz ogli, A. M. (2022). ЖИЗНЕННЫЕ ФОРМЫ, МОРФОЛОГИЯ И РАСПРОСТРАНЕНИЕ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СЕМЕЙСТВА ГУБОУЦВЕТНЫХ. Scientific Impulse, 1(4), 452-458.

Baratjon ogli S. F. et al. DORIVOR OSIMLIKLAR VA ULARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 739-746.

Baratjon ogli, Sayramov Fayzullo. "DORIVOR OSIMLIKLAR VA ULARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI." Новости образования: исследование в XXI веке 1.5 (2022): 739-746.

Baratjon ogli, S. F. (2022). DORIVOR OSIMLIKLAR VA ULARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 739-746.

Baratjon ogli S. F. et al. НАЛИЧИЕ В МЕДИЦИНЕ И ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СЕМЕЙСТВА ЛАБГУЛДАШЕВЫХ //IJDOKOR O'QITUVCHI. – 2022. – Т. 2. – №. 24. – С. 324-331.

Baratjon ogli, Sayramov Fayzullo. "НАЛИЧИЕ В МЕДИЦИНЕ И ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СЕМЕЙСТВА ЛАБГУЛДАШЕВЫХ." IJDOKOR O'QITUVCHI 2.24 (2022): 324-331.

Baratjon ogli, S. F. (2022). НАЛИЧИЕ В МЕДИЦИНЕ И ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СЕМЕЙСТВА ЛАБГУЛДАШЕВЫХ. IJDOKOR O'QITUVCHI, 2(24), 324-331.

Mashrabovich H. M. et al. MELISSA OFFICINALIS L O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA YETISHTIRISH USULI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 18. – С. 18-20.

Mashrabovich, Haydarov Mavlonjon, and Sayramov Fayzullo Baratjon o'g'li. "MELISSA OFFICINALIS L O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA YETISHTIRISH USULI." MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH 2.18 (2022): 18-20.

Mashrabovich, H. M., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). MELISSA OFFICINALIS L O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA YETISHTIRISH USULI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(18), 18-20.

Baratjon ogli S. F. et al. ESSENTIAL OIL PRESERVATIVE CONTAINING TIMOL REPRESENTATIVES OF THE FAMILY LAMIACEAE //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 839-845.

Baratjon ogli, Sayramov Fayzullo. "ESSENTIAL OIL PRESERVATIVE CONTAINING TIMOL REPRESENTATIVES OF THE FAMILY LAMIACEAE." O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2.13 (2022): 839-845.

Baratjon ogli, S. F. (2022). ESSENTIAL OIL PRESERVATIVE CONTAINING TIMOL REPRESENTATIVES OF THE FAMILY LAMIACEAE. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 839-845.

Baratjon ogli S. F. et al. ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ И ИХ БИОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 14. – С. 83-90.

Baratjon ogli, Sayramov Fayzullo. "ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ И ИХ БИОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА." O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2.14 (2022): 83-90.

Baratjon ogli, S. F. (2022). ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ И ИХ БИОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 83-90.

Baratjon ogli S. F. et al. MEDICINAL PLANTS AND THEIR BIOLOGICAL PROPERTIES //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 14. – C. 76-82.

Baratjon ogli, Sayramov Fayzullo. "MEDICINAL PLANTS AND THEIR BIOLOGICAL PROPERTIES." O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2.14 (2022): 76-82.

Baratjon ogli, S. F. (2022). MEDICINAL PLANTS AND THEIR BIOLOGICAL PROPERTIES. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 76-82.

Yusupova Z. A. et al. NATURAL MEDICINAL HERBS OF THE LAMIASEAE FAMILY AND THEIR MEDICAL PROPERTIES //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 64-68.

Yusupova, Z. A., and Sayramov Fayzullo Baratjon ogli. "NATURAL MEDICINAL HERBS OF THE LAMIASEAE FAMILY AND THEIR MEDICAL PROPERTIES." JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH 2.13 (2022): 64-68.

Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). NATURAL MEDICINAL HERBS OF THE LAMIASEAE FAMILY AND THEIR MEDICAL PROPERTIES. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 2(13), 64-68.